

## **TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI**

**Goyberdiyeva Dilnoza Maxammatisaqovna**

**Andijon viloyati Buloqboshi tumani**

**25-MTT tarbiyachisi tel nom**

**+998 90 549 84 85**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7095243>**

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada didaktik o'yinlarning o'quvchilar faolligini oshirishda va tafakkurini kengaytirishdagi o'zaro o'rni haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, ta'lim sifati, uni oshirishda interfaol metodlarni qo'llash hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ahamiyati tahlilga olingan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi, ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog o'z kasbiy tayyorgarligini hamda pedagogik mahoratini rivojlantirib borish kerakligiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Talim sifati, o'yin, tafakkur, rivojlanish, bilim ko'nikma, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar

Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Pedagogik texnologiya – oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz ozaro boglangan harakatlari tizimidir.

Ananaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman talim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilinishini, talim beruvchi tomonidan talim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Ma'lumki bolaning ta'lim olish jarayonida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bolib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar.

Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga harakat qilishi lozim.

Farzandlarimiz mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari uchun, albatta, ularni kichik yoshdanoq har bir fanga qiziqtirish zarur. Bunda o'qituvchi mahorati nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim beruvchi bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini puxta o'rgangan holda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish ustida tinimsiz izlanishi, o'zidagi bor bilimini mahorat bilan ishga solishi zarur.

Ta'limda o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash, ularni turli zo'riqishlardan asrash, bilimlarini turli o'yinlar orqali mustahkamlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarni ziyraklikka, chaqqonlikka hamda fikrni to'g'ri va aniq ifoda etishga qaratilgan o'yinlardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tanlangan o'yinning o'tilayotgan mavzuga mos kelishi, qulayligi, ko'zlangan natijaga olib kelishi ham muhim mezonlardan sanaladi. Bu esa o'qituvchining kasbiy mahoratiga, maqsadni to'g'ri belgilay olishiga ham bog'liq.

Ta'lim jarayonida motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin - tarbiyalanuvchida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin bu bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Yuqorida aytilgan fikrlarga hamohang o'qish, ona tili, matematika fanlarida qo'llasa bo'ladigan, o'quvchilarni topqirlikka, ziyraklikka va fikrlashga undaydigan, ularning ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan o'yinli usullarni keltiramiz.

“U kim? Bu nima?” o'yini

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi, o'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin oquvchilarda ziyraklikka, sinchikovlikka sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, bu o'yindan tanaffus vaqtlarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar. (Javob: «Koptok»)

2-variant: U barcha o'quvchilarning o'rtog'idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi koradilar. (Javob: "Kitob")

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy mevalar beradi. Xohlasak stol yoki stul ham bo'lishi mumkin. (Javob: «Daraxt»)

"Bolishi mumkin emas" didaktik o'yini

Bu o'yinni o'tkazishda o'qituvchi matnni o'qiydi. O'quvchilar bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Hazil-mutoyiba bilan o'tadigan bu o'yin ham o'quvchilardan ziyraklikni, sinchkovlikni va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq bo'lmaslikka ham o'rgatadi.

Undan tashqari ularning darsdan tashqari bo'lgan ilmiy va badiiy adabiyotlarga va ilmiy-ommabop filmlarga qiziqishini orttiradi va hikoya tinglash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Bu o'yin bir necha marta o'tkazilgach, keyinchalik o'quvchilarga shunday hikoyachalar tuzishni ham topshirish mumkin. "Bo'lishi mumkin emas" o'yinidan foydalanib o'qituvchi ona tili yoki o'qish darslarining samarali bo'lishiga erishishi mumkin. Bundan tashqari, musobaqalar, viktorinalar o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

1-variant: Dushanba dam olish kuni bo'lgani uchun Olim maktabga bormadi. U singlisi Vazira bilan hayvonot bog'iga bordi. Ular hayvonot bog'ida suvda suzib yurgan she'rni, qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko'rdilar.

2-variant: Ibratjon yozgi ta'til kunlarida buvisinikiga dam olgani bordi. U qishloqda ortoqlari bilan qorbo'ron o'ynadi. Buvisi sigir sog'ayotganda sigirning uloqchasini ushlab turdi. Buvisiga sigirlarga don berishda yordamlashdi.

3-variant: Abdulla juda bilimli bola. U bugun ham topshiriqni juda yaxshi bajardi. O'qituvchi uni maqtadi va "nol" ball qo'ydi. Abdulla yaqinda 2-sinfni tugatib, 1-sinfga o'tdi.

Bu o'yinlarni odobnoma, o'qish, ona tili darslarida foydalansa, menimcha, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, farzandlarga ta'lim-tarbiya berishda kasbiy, shaxsiy sifatlarini yuksak mahorat bilan ishga solayotgan fidoyi, mehnatkash, ijodkor ustozlar darslarini mazmunan boy, yangicha fikrlashga o'rgatadigan o'yinli vositalar bilan tashkil etar ekan, endigina ta'lim olishni boshlagan har bir o'quvchi birinchi kundanoq bilim olishga mehr q'oyadi desak yanglishmagan bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.Ishmuhammedov, M.Yo'ldashev. "Talim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"-T.:2016
2. J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari"-t.:2001
3. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi <https://journal.jspi.uz/index.php/fll/article/view/1298>
4. Didaktik o'yinlarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati - Buxoro viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka...  
<https://uz.denemetr.com/docs/768/index-279695-1.html?page=3>